

BO'LAJAK MUHANDISLARNING DIZAYNERLIKGA OID KREATIV QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Xulkaliyeva Gulhayo Po'lat qizi

*Termiz davlat universiteti "Milliy libos, kashtachilik, to'qimachilik" kafedrası
o'qituvchi*

E-mail: xulkaliyevagulhayo@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola bo'lajak muhandislarning dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida kreativ yondashuvlarni qo'llashning pedagogik o'qitish jarayoni hamda texnologik asoslari ishlab chiqishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: metod, dizayn, muhandis, metodika, kompetent, ta'lim tizimi, kreativ, pedagogik kreativlik, qobilyat, yondashuv, ijod, ijodkorlik, texnika, o'quv jarayoni, o'qitish, ta'lim tizimi, rivojlantirish.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ ПРОЕКТИРОВОЧНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ

Хулкалиева Гулхаё Пулат кизи

**Преподаватель кафедры «Национальная одежда, вышивка, текстиль»
Термезского государственного университета**

E-mail: qantlievagulhayo@gmail.com

Абстрактный. Данная статья направлена на разработку педагогического процесса обучения и технологических основ применения творческих подходов в процессе развития конструкторских способностей будущих инженеров.

Ключевые слова: метод, проектирование, инженер, методика, компетентность, образовательная система, творческий подход, педагогическое творчество, способность, подход, креативность, креативность, методика, образовательный процесс, обучение, образовательная система, развитие.

METHODOLOGY FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE DESIGN SKILLS OF FUTURE ENGINEERS

Xulkaliyeva Gulhayo Prlat qizi

**Teacher of the Department of "National Dress, Embroidery, Textiles" of
Termiz State University**

E-mail: qantliyevagulhayo@gmail.com

Abstract. This article is aimed at developing the pedagogical teaching process and technological bases of applying creative approaches in the process of developing design skills of future engineers.

Key words: method, design, engineer, methodology, competent, educational system, creative, pedagogical creativity, ability, approach, creativity, creativity, technique, educational process, teaching, educational system, development.

Kirish

Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Lotinchada "kreativlik" tushunchasi quyidagicha. "Creatio" - "yaratish", "ijodkor" - "yaratuvchi", degan ma'nolarni anlatadi, lekin mohiyatan bu tushuncha insonning ijodiy qobiliyatining namoyon bo'lishidir. Ijodkor shaxslar - bu rassomlar, haykaltaroshlar, yozuvchilar, shoirlar, fotosuratchilar - turli xil ijod turlarida o'z qobiliyatlarini amalga oshiradigan odamlar. Ijodkorlik, qoida tariqasida, ishbilarmonlarga xos xususiyatdir: dizaynerlar, reklama beruvchilar, marketologlar, brend-menejerlar va boshqalar.

Pedagogning kreativ kompetentligi uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U kreativ faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi.

Talabalarning muhandislik kasbiga oid kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish mazmuni multipredmetlilik va yaxlitlik tamoyillari maqsad (ijtimoiy buyurtma, ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlar), pedagogik jarayon (kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari, mazmun, shakl, vosita va baholash mezonlari) hamda natijaviy komponentlariga ustuvorlik berish asosida faoliyatli model takomillashtirilgan;

Dastlab, muhandislik faoliyatida innovatsion muhandislik kasbiy faoliyat mazmunini tahlil qilishdan avval, “texnik faoliyat” tushunchasining mohiyatini aniqlab olishimiz lozim.

Texnika so’zi yunoncha “techne” (san’at, mahorat, malaka) so’zidan olingan bo’lib, faoliyat esa “sub’ekt sifatidagi insonlarning muayyan natijaga erishish uchun ob’ektga maqsadli ta’sir ko’rsatishi va shu yo’l bilan o’z ehtiyojlarini qondirishga atrof muhit bilan faol aloqalar orqali intilish”ni anglatadi. Demak, texnik faoliyat deganda inson jismoniy va aqliy mehnati ko’lamini oshirish va uni osonlashtirish maqsadida, uning to’la yoki qisman mehnat va fiziologik funktsiyalarini almashtirish uchun tabiat qonunlaridan foydalangan holda mexanik tizimlarni ekspluatatsiya qilish, ularga texnik xizmat ko’rsatish, bu tizimlarni yaratish, analiz, sintez qilish maqsadlariga yo’naltirilgan jarayonni anglash lozim. Har qanday boshqa faoliyatlar singari texnik faoliyat ham o’zining quyidagi asosiy elementlariga ega: motivlar, maqsadlar, vositalar va ularning avtomatlashtirilgan komponentlari – operatsiyalar.

Bunday mutaxassislarni shakllantirish muammosi asosan fundamental, amaliy tadqiqotlar hamda oliy ta’lim tizimi doiralarida hal qilinadi. Oliy ta’lim tizimida ilmga qiziquvchi talabalarni aniqlash va tanlash, ularni tarbiyalash yo’lga qo’yilishi lozim. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida o’qitishning didaktik asoslarini takomillashtirish zaruriyati paydo bo’ladi.

Ijodkorlik «qayta shakllantirish» – mavjud shakl unsurlari yordamida yangi shakl yaratish demakdir. «Qayta shakllantirish» ijodkorligi o’z ichiga oldindan ma’lum bo’lgan shaklga o’xshagan yangi shaklni kashf etishdir. Ijodkorlik «bir shakldan ikkinchi shaklga o’tkazish» – bu jarayonda qoidalarining yangi qolipi, chizmasi, ma’lum tuzilmalarning yangi turi yuzaga keladi. Yangi yaratilgan shakllar eski shakllarning yangicha talqini bo’lmaydi. Ijodkor shaxs qoidalar yaratilishi bilanoq, ularga suyangan holda, yangi qoidalar yaratish ustida ish boshlaydi. Undan so’ng faoliyat shakllarini ochish, oldin hech qachon qo’llanilmagan shakllarni kashf etish uchun bosh qotiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Mamlakatimizda ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarining tayyorlashning turli sohalari bo'yicha MDH davlari olimlaridan L.S.Vigotskiy, P.Ya.Galperin, I.V.Dubrovina, E.F.Zeer, V.P.Zinchenko, V.M.Karimova, A.N.Luk, Ye.A.Klimov, V.A.Kruteskiy, A.M.Matyushkin, Ya.A.Ponomaryev, S.L.Rubinshteynlarning tadqiqotlarida kreativlikning psixologik jihatlari, T.A.Barisheva, D.P.Bogoyavlenskiy, M.G.Davletshin, Z.Nishonova, V.A.Shekalov va boshqalarning tadqiqot ishlarida shaxs kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari o'z aksini topgan.

V.I.Samoxvalovanning ta'kidlashicha, ijodkor shaxsi o'zini namoyon qilish uchun qudratli kuchga ega bo'lgan odamdir, ammo:

birinchidan, bu energiyani yangilik yaratish uchun safarbar qiladi;

ikkinchidan, ruhiyatida yuzaga kelgan vulqonni jilovlay oladi»[].

Ijodkor odam ijod qilishga chanqoq bo'ladi. Uni amalga oshirish uchun qat'iyat bilan ishlashni yaxshi biladi.

M.Maxmutov ijodiy faoliyatni quyidagicha ta'riflagan: «Ijodiy faoliyat – evristik faoliyat bo'lib, uning mohiyati muammoni tez tushunishidan, asosiy g'oya, tushunchaning mohiyatini anglab yetishidan, harakat usulini to'satdan topishidan iborat. Bunday faoliyat yuqori jo'shqinlik, sub'ektning ob'ektga katta qiziqishi bilan tavsiflanadi». Fikrimizcha, mutaxassisning kasbiy-pedagogik ijodkorligining shakllanishida ham protsessual, ham shaxsning ijodiy fazilatlarini rivojlanib borishi lozim.

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish orqali talabalarda muhandislik fikrlashini rivojlantirish va kreativ fikrlashga ko'nikma xosil qilishda yuqorida keltirilgan muloxazalar orqali quyidagi asosiy tadqiqot yo'nalishlarini belgilab olamiz:

Ijod – insonning yangi moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish faoliyatidir. Ijod eng avval inson tasavvurida paydo bo'ladi, so'ngra bu yuzasidan olib borilgan

izlanishlar, kuzatishlar tahlil qilinib, mantiqiy xulosalar chiqariladi. Ijod fan-texnikani, madaniyatni boyitadi, rivojlantiradi.


Ijodkorlik – insonning borliqni bilish va o‘zgartirishga qaratilgan ongli, maqsadli faoliyati hisoblanib, buning natijasida yangi , avvaldan mavjud bo‘lmagan, jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini yaxshilashga yo‘naltirilgan buyumlar, texnik ishlanmalar va boshqalar yaratiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalar orasida ijodiy faoliyatga moyil talabalarni aniqlash birinchi o‘qish kunidan amalga oshiriladi va seleksiya ishlari olib boriladi.

Bugungi kunda kreativlik – shaxsning muhim mezon, uning yaxlit tarzda rivojlanishining omilidir. Shuning uchun hozirgi kunda kreativlikka – intellektual darajadagi faol ijodga, albatta, bilishga oid asosda, hozirgi davrda alohida e’tibor berilmoqda. Mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida talabalarning bilim olishlari uchun o‘qitishning yangi shakl noanaviy metodlari orqali ularning o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish, ulardagi kasbiy ijodkorlikni shakllantirish orqali ta’lim – tarbiya jarayoni sifatini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqib amaliyotga joriy etish metodlari mavjud. Ushbu metodlar tizimda ta’lim – tarbiya samaradorligini oshirish va uni yangi sifat bosqichiga olib chiqishga xizmat qiladigan choralarni ishlab chiqishni talab etadi.

Talabalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur: ular tomonidan qiziqishi doirasida savollar berilishini ta’minlash va bu odatni qo‘llab-quvvatlash; talabalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish; talabalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish; talabalarning qiziqishlariga e’tibor qaratish.

Bo‘lajak muhandis talabalarga o‘z oldiga qo‘yilgan muammoli masalalarni hal qilishda mavjud bilimlari va tajribalariga mos kelmaydigan dalillar duch keladi. Bu esa ularning yuzaga kelgan vaziyat yuzasidan o‘z ustida ishlash, mustaqil o‘qib o‘rganishini talab etadi. Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi ularda kreativlik potensialini rivojlantiradi.



1-rasm. Kreativlik sifatlarini rivojlantirish usullari.

Kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish. Bu jarayonda asosiy urg'u kreativ fikrlashga yo'naltirilgan bo'lib, talabalar fe'llar yordamida kreativ xarakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga yo'naltiriladi. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Misollarni keltirish orqali talabalar savol tarkibidagi «ta'riflab bering» tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra «mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib o'ting» deyish bilan teng. Nazorat savollari talabalarni ikrashga undovchivosita hisoblanib, ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi.

Amaliy kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish. O'qituvchilar tomonidan talabalarda kreativ fikrlash qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirishda ko'rsatmali metod va usullardan foydalanadilar. Mazkur jarayonda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin.

Kreativ faoliyat jarayonlarini tashkil etish. Bu usulda esa, talabalarni muammo yuzasidan yechim topish va innovatsion g'oyalarni tadbiq etishda kreativ, ijodiy

fikrlashga urg'u beriladi. Ushbu jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo'llanilmasada, kreativ fikrlash yuz beradi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin.

Demak, kreativlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari sinfda maqsadli ravishda yaratilgan ijodiy tarbiyaviy muhitga bog'liq bo'lishi mumkin; o'qituvchining ijodiy xulq-atvori namunasining mavjudligi va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini ifodalovchi sifatida o'qituvchining shaxsiyati; talabalar va o'qituvchilarning birgalikda yaratilishi; ijodiy faoliyatdagi sub'ektiv o'rni; ijodiy muhitni saqlash va muvaffaqiyat holatlarini yaratish. Talabalar ijodining eng samarali rivojlanishi ijodiy ta'limning uzluksiz tizimi sharoitida maqsadli, har tomonlama pedagogik ta'sir ko'rsatish orqali ta'minlanadi.

Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Eshquvvatov, U.A. Talabalarning muhandislik kasbiga oid kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari / E.A. Shumilova // SUSU axborotnomasi. "Ta'lim. Pedagogika fanlari. - 2015. - V. 7, 4-son. - 13-17-betlar.
2. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov "Umumiy pedagogika" – Toshkent, "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018-yil, 530 bet, 210-bet.
3. Ruzimatova B.S., Yulchiyev I.I, kreativ pedagogika – pedagogikaga yangicha yondashuv . Farg'ona politexnika instituti-2021

4. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik q'obiliyatlarini rivojlantirish. / Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.
5. Muslimov N., Usmonboeva M., Sayfurov D., Turaev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. - T.: Sano standart, 2015.

Axborot manbaalari:

1. www.pedagog.uz
2. www.Ziyonet.Uz
3. www.edu.Uz

